

“SINFDA O‘QISH” MODULINI O‘QITISHDA LOYIHALASH**METODIDAN FOYDALANISH****Tog‘ayeva Umida Shavqi qizi**

Buxoro davlat universiteti, tayanch doktoranti

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili o‘qitish metodikasining “sinfda o‘qish” modulini takomillashtirish yo‘llari, usul va vositalari bayon qilingan. Bugungi kunda ta’lim tizimida turli yangiliklarning kirib kelishi ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, “Ona tili o‘qitish metodikasi” modulining takomillashishida loyihibiy ta’limning ahamiyati beqiyosdir. Ushbu maqolada “sinfda o‘qish” modulini takomillashtirishda loyihalash metodini qo‘llash va ta’lim jarayonida tashkil etish usullari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: metodika, loyiha, loyihalash metodi, modul, sinfda o‘qish, texnologik xarita.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan, jahon pedagogikasining ilg‘or metodlaridan samarali foydalanish dolzarb masalalardan bo‘lib, loyiha metodi ta’limning ilg‘or usullarini o‘zida mujassamlashtirgan. Loyihalash - oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o‘rnatilgan vaqt mobaynida yo‘l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o‘quv axborotini etkazish vositasi va yo‘llarini aniqlash usulidir. Ona tili o‘qitish metodikasi ta’limini loyihibar usuli orqali tashkil etish bilim va malakalarni amaliy qo‘llash, tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmuali o‘qitish usulini amalgaga oshiradi. Ta’lim oluvchilar yuqori darajada, boshqa o‘qitish usullaridan foydalanishga qaraganda, rejalshtirishda, tashkillashtirishda, nazoratda, tahlil qilish va vazifani bajarish natijalarini baholashda ishtirok etadilar. O‘quv loyihibar usuli ta’lim beruvchining ta’lim oluvchilarga muammoni, faraz, vazifalarni ifodalashda yordam beradi va tezkor boshqaradi. Loyiha fanlararo, bir fan yoki fan tashqarisida bo‘lishi mumkin. Loyihalash ikki usulda - shaxsiy va guruhiy asosda amalgaga oshiriladi. Har ikki yo‘nalishning ijobiy va afzallik xususiyatlari bor. “Sinfda o‘qish” modulini loyihalash ta’limning sifati va samaradorligini oshiradi, talabalar loyiha ustida ishslashda loyiha rejasi asosida aniq maqsad uchun faoliyatlarini amalgaga oshiradi. Natijada qatnashchilarda loyihibar bajarilishi o‘zining faoliyatiga bog‘liq ekani tushunchasini anglash yuqori mas’uliyat hissini yuzaga keltiradi; loyihaning barcha bosqichlarini bajarish jarayonida fikrning tug‘ilishidan yakuniy refleksiyagacha talabalar tajriba orttiradilar; ularda eng muhim o‘quv ko‘nikma va malakalari (tadqiqotchilik, baholash, mustaqil fikrlash, mustaqil qarorlar chiqarish, taqdimot qilish) shakllantirish to‘la boshqariladigan jarayonga aylanadi.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘qish faoliyati barcha predmet darslarida amalgaga oshiriladi. Lekin o‘qishga o‘rgatish yo‘l-yo‘riqlarini o‘qish metodikasi ishlab chiqadi. O‘qish metodikasi kichik yoshdagи o‘quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi. Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta’limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta’limini o‘qish ta’limisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Sinfda o‘qish jarayonida o‘quvchilar 1-sinfdan “loyiha ishi” ga tayyorlana boshlaydilar. Loyihalash ko‘nikmasi shakllantirilishi uchun kichik mavzular misolida berib boriladi. Masalan, 1-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligining 49-betida 7-topshiriq berilgan. Unda tabiat va hayvonlarni asrash uchun o‘z loyihangizni tuzing topshirig‘i

ko'rsatilgan. O'quvchilar "Men tabiatni asrayman" nomli loyiha ishi tuzishlari so'ralgan va buni quyidagi bosqichda amalga oshiriladi.

1. Tabiatni asrash uchun sizga nimalar kerak?
2. Ishni nimadan boshlaysiz?
3. Bu ishlarni qilganingizdan so'ng nimalar o'zgaradi?

O'quvchilar bu jarayonda har bir ishni ketma-ketlikda va izchillikda olib borishni o'rganadi. Har bir o'quvchi o'z loyihasini tuzishga harakat qiladi, qo'lidan kelgancha taqdimot yaratishga harakat qiladi. Har bir savolga alohida javob tayyorlaydi va natijasini aniq tasvirlab beradi. Uyga vazifa sifatida uyda, oilangiz davrasida o'z loyihangiz taqdimotini uyuشتiring, har bir masalani tartib bilan so'zlab bering topshirig'i beriladi. O'qituvchi xuddi shunga o'xhash mavzularda o'quvchilarga loyihalash ko'nikmasini tarkib toptirishi lozim. Bunga misol qilib 1-sinf dagi "Kun tartibi", "Oydagi qahramon", "Oyni o'g'irlashdi", "Mehmon bo'lish yaxshi-da" mavzularini olish mumkin. Bunda o'qituvchining loyihalash faoliyati muhim rol o'ynaydi. Chunki o'quvchi yoki talaba o'qituvchisidan o'rnak oladi, uning sifatlarini o'ziga ko'chiradi. Loyiha ishida eng muuhim ishlardan biri o'qituvchi tomonidan texnologik xaritaning ishlab chiqilishidir. Chunki bu metodda texnologik xarita muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologik xaritada lohiha ishining tayyorgarlik bosqichidan tortib, ishni bajarish, taqdim etish va tugallanishigacha bo'lgan jarayon o'z aksini topgan bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, sinfda o'qish darslarini loyihalash metodi orqali tashkil etganda, ta'lim samaradorligi yanada ortadi. O'quvchi yoshlikdan loyiha ishlari haqida bilimga ega bo'ladi. Kundalik hayotda ham har bir ishni reja asosida bajarishga odatlanadi. Bir maqsadga erishish uchun turli yo'llarni o'ylab topadi va ular orasidan eng to'g'risini farqlay oladi. Maqsad qo'yishni va yakuniy xulosa chiqarishni o'rganadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizzxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: TDPU. 2003 y.
2. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiyasi seriyasi. – T.: "Iqtisodiyot" 2012 y.
3. I.Asimova, K.Mavlonova, S.Qur'onov, Sh.Tursun. Ona tili va o'qish savodxonligi 1-qism. 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika talim markazi, 2021. – 104 b.
4. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: "Noshir", - 2009. 352 b.
5. R.Safarova, M.Inoyatova. Alifbe 1-sinf. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.- 80 b.
6. Saidaxmedov N.S. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash namunalari. - T.: RTM, 2000 y. -46 b.
7. www.Ziyonet.uz